

## CHET TILINI O'RGANISH BORASIDA O'QITISH TIZIMLARINING TALABALAR KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUHUM TAMOYILLARI

G'.M.Nizamov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7051452>

*Annotatsiya.* Maqolada o'qitish tizimlari ma'lum ma'noda repetitor vazifasini o'tab, har bir talabaga o'qitishning vaziyatni namoyish etish, tushuntirish va izohlash, mashqlarni va o'quv materialini nutqda amalda qo'llashni tashkil qilish kabi uslublari asosida chet tilini o'rganish borasida o'zining eng qulay yo'lini topishda yordam beradi.

*Kalit so'zlar:* o'qitishning vaziyatni namoyish etish, tushuntirish va izohlash, mashqlarni va o'quv materialini nutqda amalda qo'llash va tashkil qilish, chet tilini o'rganish, videofilm, ovoz yozuv, multimedia, modellashtirish.

## ВАЖНЫЕ ПРИНЦИПЫ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

*Аннотация.* В определенном смысле системы обучения в статье играют роль тьютора и помогают каждому студенту найти наиболее удобный способ изучения иностранного языка на основе таких методов обучения, как демонстрация, пояснение и пояснение ситуации, организация упражнений и практических занятий. применение учебного материала в речи.

*Ключевые слова:* демонстрация, объяснение и интерпретация учебных ситуаций, практическое применение и организация упражнений и учебного материала в речи, изучение иностранного языка, видеофильм, запись голоса, мультимедиа, моделирование.

## IMPORTANT PRINCIPLES OF FOREIGN LANGUAGE LEARNING TRAINING SYSTEMS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCES

*Abstract.* In a certain sense, teaching systems in the article play the role of a tutor and help each student to find the most convenient way to learn a foreign language based on such methods of teaching as demonstrating, explaining and explaining the situation, organizing exercises and practical application of the educational material in speech.

*Keywords:* demonstration, explanation and interpretation of teaching situations, practical application and organization of exercises and educational material in speech, learning a foreign language, video film, voice recording, multimedia, modeling.

## KIRISH

Chet tilini o'qitish multimedia tizimlari didaktik asar sifatida o'z imkoniyatlari ko'ra bosma nashrning ham, videofilmning, ovoz yozuvining ham namuna belgilarini o'z ichiga oladi. Biroq chet tilini multimedia tizimlari yordamida o'rganishda, an'anaviy o'quv vositalaridan farqli ravishda, eng avvalo, talaba mamlakat tilini va madaniyatini o'rganayotib, kuzatayotgan, go'yoki sayohat qilayotgan asl til muhitini modellashtirish (namunaviy muloqot vaziyatlarida) taqozo etiladi. Bir vaqtning o'zida o'qitishning shaxsiylashtirish, motivlashtirish va boshqa muammolari yangicha hal qilinadi. Bunda shaxsiylashtirish nafaqat axborotni taqdim etishning turli usullari hisobiga, balki o'quv materialini individual o'tishning turli usullari yordamida ham

amalga oshiriladi. O‘qitish tizimlari ma’lum ma’noda repetitor vazifasini o‘tab, har bir talabaga o‘qitishning vaziyatni namoyish etish, tushuntirish va izohlash, mashqlarni va o‘quv materialini nutqda amalda qo‘llashni tashkil qilish kabi uslublari asosida chet tilini o‘rganish borasida o‘zining eng qulay yo‘lini topishda yordam beradi. O‘quv materialini modellashtiriladigan muhit bilan aloqa asosida o‘zlashtirish tamoyillari ham, ularni o‘qish orqali egallash tamoyillari ham amalga oshiriladi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Multimedia o‘qitish tizimlarida muammoli o‘qitishning asosiy tamoyillari ham amalga oshiriladi. Bu muammoli vazifalar (topish, bilish, tushunish, fikr bildirish va b.) qo‘yish, ularni hal etish usullarini izlash va yo‘l ko‘rsatish yo‘li bilan amalga oshiriladi, toki talaba mustaqil fikrga va shuning asosida faoliyatga kela olsin. Bunday yondashuv tobora dolzarb bo‘lib boradi, chunki kommunikatsiyaga o‘rgatishni kognitiv metodikalar bo‘yicha talabalarning muammoli vaziyat yechimini mustaqil ravishda, o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatib berish, yordam berish va tuzatish kiritishga tayangan holda topish qobiliyati orqali amalga oshirish mantiqiyidir.

Bunda chet tilida muloqot qilishga o‘rgatishda multimedia vositalarini qo‘llash imkoniyatlari majmui quydagicha: elektron xizmat yozishmalari; referatlar va taqdimotlar tayyorlash uchun ma’lumotnomma beruvchi axborotni izlash, ishlash va saqlash; ish yuzasidan muloqot bo‘yicha sheriklar bilan munozara guruhlaridagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish; Internetda ochiq kommunikativ makon hodisasi hamda elektron kommunikatsiya va kommersiya odobi; veb-saytlar va taqdimotlar uchun matnlarning bezagi va lo‘ndaligi madaniyatlararo makonda kommunikatsiya vositasi sifatida; elektron muloqotdan yuzma-yuz muloqotga o‘tishda kommunikativ to‘siqlarni yengib o‘tish.

Interfaol video. Dastur chet tilidagi film bo‘lib, talabalar kompyuter taklif qiladigan vaziyatlardan ta’sirlanadilar (film qahramonlarining savollariga javob beradilar, ularning harakatlarini boshqaradilar) va shu tarzda ssenariyni o‘zgartiradilar, bunda go‘yoki voqealar rivojida o‘zlarini ham qatnashadilar.

## TADQIQOT NATIJALARI

Chet tilini o‘qitishda AKTdan foydalanish tajribasi ular rivojlantiruvchi o‘qitish tamoyiliga mos kelishini va quyidagi o‘quv vazifalarini hal etishda yordam berishini ko‘rsatadi: til hodisalarini tushunish; lingvistik qobiliyatlarni rivojlantirish (til va nutqqa oid mashqlarda); til va nutq harakatlarini avtomatlashtirish; muloqot vaziyatlarini yaratish.

AKTning barcha sanab o‘tilgan xususiyatlari til ta’limining talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdek asosiy vazifasini hal etishda yordam beradi.

## MUHOKAMA

Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga qaratilgan o‘qitish vositalaridan tashqari, o‘qitish vositalari tizimiga an’anaviy vositalar ham kirishi lozim. Bu an’anaviy o‘qitish vositalarining o‘ziga xos funksiyalaridan kelib chiqadi, ularni kompyuter bera olmaydi yoki psixologik-pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq emas: o‘qitish dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun uslubiy ko‘rsatmalar, amaliy va laboratoriya ishlari o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, mustaqil, tekshirish va nazorat ishlari uchun qo‘llanmalar, auditoriyadan tashqari o‘qish uchun kitoblar, fakultativlar uchun darsliklar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, o‘qitishning lingvistik mamlakatshunoslik jihatini ta’minlash uchun original nashrlar va b.

Nemis tili uchun muvofiq ravishda tafsilotli ro'yxat (spesifikatsiya) ishlab chiqilgan asosiy tamoyillar lingvo-didaktik birliklarni taqdim etishga darajali yondashuv hamda o'qitish mazmunini tanlashga kommunikatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bunda gaplar darajasida matnni shakllantirish apparati, aynan grammatika va leksika, o'z holicha o'qitish maqsadi hisoblanmaydi, lekin kommunikatsiya maqsadlarini bajarish uchun vosita bo'ladi. Yevropa darajalar tizimini ishlab chiqishda turli mamlakatlarda keng miyosli tadqiqotlar o'tkazildi, baholash metodikalari amaliyotda sinab ko'rildi. Natijada til o'rganish jarayonini va uni bilish darajasini baholashni tashkil qilish uchun ajratiladigan darajalar soni haqidagi masala bo'yicha bitimga kelindi.

## XULOSA

Boshlang'ich, o'rtalari va yuqori darajalarni o'z ichiga olgan uch darajali an'anaviy tizimdagi pastroq va yuqoriqo ost darajalarni ifodalaydigan 6 ta yirik daraja mavjud. Darajalar sxemasi ketma-ket tarmoqlanish tamoyili bo'yicha tuzilgan. U darajalar tizimini uchta yirik darajaga bo'lishdan boshlanadi – A, V va S. O'z navbatida, ular A1 (Omon qolish darajasi – Breakthrough), A2 (Boshlang'ichdan oldingi daraja – Waystage), V1 (Boshlang'ich daraja – Threshold), B2 (Boshlang'ich yuqori daraja – Vantage), S1 (Professional egallaganlik darajasi – Effective Operational Proficiency), S2 (Mukammal egallaganlik darajasi – Mastery) ost darajalariga bo'linadi.

## REFERENCES

1. Баранова. Е.И. Системный подход как метод достижения эффективного управления / Е.И. Баранова, С.Я Шарудина // Инновационные процессы в высшей школе // Материалы XIV Всероссийской научнопрактической конференции. - Краснодар: Изд. ГОУ ВПО КубГТУ, 2008. с.97-98.
2. Батуриян. М.А. Процесс изучения понятий социологии как способ обучения иностранному языку / М.А. Батуриян // Инновационные процессы в высшей школе // Материалы XIV Всероссийской научнопрактической конференции. - Краснодар: Изд. ГОУ ВПО КубГТУ, 2008. - С. 139 - 140.
3. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика: Учеб. пособие для инж.-пед. инв и инд.-пед. тех-н. -Екатеринбург: Деловая книга, 1996.
4. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. М., 1965.
5. Бердичевский А.Л. Языковая политика и методика преподавания иностранных языков в странах Европы//Иностранные языки в школе. 2002. - №5.- С. 17-22.
6. Бесpal'ko В.П. Основы теории педагогических систем (Проблемы и методы психолого-педагогического обеспечения технических обучаю
7. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. /А.А. Вербицкий. -М.: Высшая школа, 1991.
8. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. -4-е изд., перераб. и доп. М.: Рус. яз., 1990.
9. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма) / Е.М. Верещагин. М.: МГУ, 1969. 160 с.
10. Википедия свободная энциклопедия. [Электр. ресурс]: URL: ru.wikipedia.org.